



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sapayeva Boljon Qadamovna¹

Sabirova Ilmira Ikramovna²

¹*Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o’qituvchisi*

Email: sapayeva-1980@mail.ru

²*Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o’qituvchisi*

Email: oybekpolvon@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ISTIQLOL MAVZUSI BILAN BOG‘LIQ ASARLARNI O‘QISH DARSLARINI ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL QILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda istiqlol mavzusidagi asarlarning o‘qitishning ahamiyati, bu mavzudagi asarlarni o‘qish darslarini zamonaviy ta’limtexnologiyalari asosida tashkil qilish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish, istiqlol, ta’lim texnologiyalari, sinkveyn, klaster.*

ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ ЧТЕНИЯ РАБОТ ПО ТЕМЕ НЕЗАВИСИМОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье освещается значение преподавания работ по теме независимость в начальных классах, вопросы организации уроков чтения работ по данной теме на основе современных образовательных технологий.*

Ключевые слова: *чтение, независимость, образовательные технологии, синквейн, кластер.*

ORGANIZATION OF CLASSES FOR READING WORKS RELATED TO THE TOPIC OF INDEPENDENCE IN ELEMENTARY GRADES ON THE BASIS OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation. *This article covers the importance of teaching works on the topic of independence in primary classes, the organization of classes on reading works on this topic on the basis of modern educational technologies.*

Keywords: reading, perspective, educational technology, sinkwein, cluster.

Kirish. Ma'lumki, istiqlol xalqimiz erishgan eng ulug' ne'mat hisoblanadi. Istiqlol tufayli xalqimiz o'z mustaqilligiga ega bo'ldi. O'zligini angladi hamda unutilgan, toptalgan milliy ma'naviy-madaniy merosini qaytardi. Boshlang'ich ta'limning sinfda o'qish darslarida o'quvchilar eng avvalo istiqlol haqida, tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti haqida, ularning o'tmishi, hozirgi yashash hayoti hamda mashhur kishilar to'g'risida bilib oladilar. Ularga yurtimiz istiqloli, tabiat, ob-havo, boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqida bilimlar beriladi. Bilim olish jarayonida munosabat uyg'otiladi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi ham tarbiyalanib boriladi. Sinfda o'qish darslarida ta'lim-tarbiya vazifalari kompleks ravishda hal qilinadi. Shuningdek, o'quvchlarning ijobiy sifatlari shakllanadi, ular aqliy va estetik jihatdan kamol topadilar. Mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslariga o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, o'qish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona – Vatan, milliy qadriyatlar, mustaqilligimiz haqidagi tasavvur tushunchalari kengaytirilib, boyitiladi.

Bunda boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rinni organ materiallar juda katta ahamiyat kasb etadi. Binobarin, darsliklardan badiiy, ilmiy-ommabop va xalq og'zaki ijodi asarlari o'rinni organ. Ular o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladi va o'rganiladi. Boshlang'ich sinf "Oqish kitobi" darsligidan o'zbek xalqining istiqloli haqidagi asarlar ham o'rinni organ.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslariga o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, o'qish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona – Vatan, milliy qadriyatlar, mustaqilligimiz haqidagi tasavvur tushunchalari kengaytirilib, boyitiladi.

Bunda boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rinni organ materiallar juda katta ahamiyat kasb etadi. Binobarin, darsliklardan badiiy, ilmiy-ommabop va xalq og'zaki ijodi asarlari o'rinni organ. Ular o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladi va o'rganiladi. Boshlang'ich sinf "Oqish kitobi" darsligidan o'zbek xalqining istiqloli haqidagi asarlar ham o'rinni organ.

Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o'sib-ulg'ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirgan kelajakda jamiyatda o'z o'rmini egalashga erishgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan

islohotlarda umumta'lim maktablari hal qilivchi kuchga aylangani ayni haqiqatdir. Inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulqatvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadidir.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazari bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishda pedagogik texnologiyalar muhim sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ilmiy-metodik adabiyotlarda va pedagogik texnologialarga bag'ishlangan adabiyotlarda bu masala atroflicha o'z aksini topgan. Ularda ilg'or pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ularni qo'llashning mohiyati maqsad va vazifalari kabi masalalar keng yoritilgan. Shunday bo'lsa-da boshlang'ich sinflarda istiqlol mavzusi bilan bog'liq asarlarni o'qish darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilish va o'tkazish yo'llari monografik jihatdan hozirgacha o'z tadqiqini topmagan masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology). Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarimiz oldiga qo'yilayotgan talablar yuksak hamda mas'uliyatlidir. Hozirgi kunda biz farzanlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlarini orzu qilayotgan, barcha intilishlarimizni shu maqsadga yo'naltirgan ekanmiz, buning uchun birinchi galda, ma'naviy tarbiya beradigan vatanparvarlik masalasiga katta ahamiyat berishimiz asosiy vazifadir. Ularni komil inson qilib tarbiyalashda eng avvalo vatanga bo'lgan muhabbatini uyg'otishimiz darkor.

Yoshlar ongiga mustaqillik ulug' ne'mat ekanligini, ota-bobolarimiz yurt mustaqilligi uchun boshidan ko'plab sinovlarni o'tkazganligini, yurtimiz istiqloli qanday og'ir kurash va mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilganligini yetkazish lozim.

Ana shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga istiqlol mavzusi bilan bog'liq asarlar kiritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongi va shuuriga 1991-yil 31-avgustda qo'lga kiritilgan milliy mustaqillik — XX asrda xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ma'naviy jasorat namunasi ekanini singdirish lozim.

"O'qish kitobi"ga kiritilgan asarlar mavzusida vatan va istiqlol haqidagi bilimlar o'quvchilarga sinfdan sinfga o'tish bilan tobora guruhlashtirib boriladi. Vatan, uning mustaqilligi hamda uning sharafli o'tmishi qahramonona hozirgi kuni o'qish kitobida markaziy mavzu hisoblanadi. O'quvchilar vatan tushunchasi ona vatan tabiatini haqidagi aniq tasavvurni chuqurlashtiradigan mehnat ahli va ularning kasbi haqidagi, yurtimizning mustaqilligi, dunyodagi ilg'or mamlakatlar bilan hamkorlik haqidagi

asarlarni o‘qish jarayonida asta-sekin shakllana boradi. Shunday qilib, vatan tushunchasi bolalarning qabul qilish va umumlashtira olish uchun muvofiq aniq materiallar orqali singdiriladi. Istiqlol mavzusi bilan bog‘liq asarlarni o‘qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali darsimiz samaradorligi yanada ortadi. Chunki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdarligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish va ko‘nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘quvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Jumladan, 3-sinfda “X.Davronning “Vatan mo‘tabardir” matni ustida ishlaganda quyidagi metodlarni qo‘llash mumkin:

“FSMU” metodi

(F) – Biz Vatanni sevmoqni dono bobolarimizdan o‘rganmog‘imiz kerak.

(S) – Chunki ota-bobolarimiz Vatanimiz tinchligi, mustaqilligi uchun jon fido qilishgagan.

(M) – Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimizning jasorati.

(U) – Biz ajdodlarimizga mos farzandlar bo‘lishimiz kerak.

Yoki

(F) – Vatan ona kabi yagonadir.

(S) – Chunki insonning onasi bitta bo‘lgani kabi tug‘ilgan joyi ham bitta bo‘ladi.

(M) - Vatan ona kabi bizlarni yediradi, kiyintiradi, mehr beradi.

(U) - Onamizni qanday yaxshi ko‘rib e’zozlasak, vatanimizni ham shunday e’zozlashimiz kerak.

“Kim topqir” metodi. Vatanparvarlik haqidagi maqollarni belgilang.

Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi.

Mehnat, mehnatning tagi rohat.

Maslahaatlari ish tarqamas.

O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.

O‘gli borning o‘rni bor, qizi borning qadri bor.

O‘nta bo‘lsa o‘rni bor, qirqta bo‘lsa qilig‘i.

”Sinkveyn” metodi

1. Vatan
2. Yagona, muqaddas
3. Yediradi, ichiradi, g‘amxo‘rlik qiladi.
4. Vatan ona kabi muqaddasdir.
5. Yurt.

“Blis-o‘yin” texnologiyasi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etish, mantiqiy fikrlash, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlar va ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan.

Maqsadi: ushbu usul orqali o‘quvchilarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilab, so‘ngra o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olishga o‘rgatish.

Vazifasi: o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilishga o‘rgatadi.

«Blis-o‘yin» texnologiyasi quyidagicha tashkil qilinadi.

O‘quvchilarga alohida-alohida tarqatma materiallar beriladi. Ular tomonidan yakka tartibda bajarilishi kuzatiladi. O‘quvchilar tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan vazifani mustaqil bajaradilar, so‘ngra guruhlarda tahlil qiladilar.


O‘quvchilar tarqatma materialdagi tartibsiz berilgan javoblar to‘g‘risiga mos savollar raqamini belgilab chiqadilar. Bu vazifani bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra o‘quvchi javobi bilan to‘g‘ri javob o‘qituvchi yoki guruhlar tomonidan taqqoslanib, tahlil qilinadi.

“Blis-o‘yin” texnologiyasidan har bir mavzuni mustahkamlash jarayonida foydalanish mumkin. Masalan: “Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin” mavzusida ushbu texnologiyadan quyidagicha foydalanish mumkin:

Nº	Savol	Javob	Yakka javob	Guruh javobi	To‘g‘ri javob
1	O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi qachon e’lon qilindi?	1992-yil dekabr			
2	O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik bayrami qachon nishonlanadi?	Fan, texnika, madaniyat, sport sohasida imkoniyatlar eshigi ochiladi			

3	Mustaqillik nima?	1992-yil 8-dekabr			
4	O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qachon qabul qilingan?	1991-yil 31-avgust			
5	O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?	1991-yil 18-noyabr			
6	O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qachon qabul qilingan?	1991-yil 1-sentabr			
7	Mustaqillik biz yoshlarga nima beradi?	Ajdodlarimiz orziqib kutgan hurlik			

Yoki ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida Klaster metodidan ham foydalanish mumkin.



Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Istiqlol mavzusidagi asarlarni o‘rganish darslarida o‘quvchilarning asarni chuqur o‘zlashtirishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta’minlash kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e’tibor qaratiladi. Bunda interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinflarda istiqlol mavzusiga oid asarlarni o‘rgatishda eng avvalo aniq maqsad qo‘yilishi kerak. Agar maqsad to‘g‘ri va aniq bo‘lmasa, natijaga erishib bo‘lmaydi. Natijaga erishish uchun bizga eng yaxshi pedagog o‘zining kuchli boshqaruvchanligi asosida o‘quvchilarga sifatli ta’lim bilan bir qatorda tarbiya ham berishi lozim. Ta’lim berish jarayonida o‘ziga xos zamonaviy texnologiyalarga asoslanib darsni to‘g‘ri tashkil qila olishi zarur. Har bir pedagogning o‘ziga yarasha uslubi, usuli orqali yangi mavzu bayonini yoritib bera olishi kerak. Shuningdek, har bir pedagog o‘z usullarini qo‘llash jarayonida ularning mazmuniga katta e’tibor berishi lozim. Zero, sifatsiz ta’lim hech qachon natija bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.
2. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent : “Tafakkur” nashriyoti, 2015.
3. Matchonov S., G‘ulomova X. va boshqalar. Boshlang‘ch sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.